

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Madaniyatshunoslik” kafedrasи v.b. dotsenti
Shodiyev Xamza Xoliqulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda zamonaviy tendensiyalarning o'rni, sohada qo'llanilayotgan va qo'llanishi kutilayotgan yangicha innovatsiyalar, sohaga qaratilayotgan e'tibor haqida fikrlar yuritilgan va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Tendensiya, innovatsiya, madaniyat va san'at sohasi menejmenti, innovatsion jarayonlar, ijodiy jamoa, taraqqiyot strategiyasi, madaniy va ma'rifiy yuksalish.

Abstract: In this article, the role of modern trends in the development of culture and art in the development of modern Uzbekistan, the new innovations used and expected to be used in the field, the attention paid to the field, and suggestions are given.

Key words: Tendency, innovation, culture and art management, innovative processes, creative community, development strategy, cultural and educational growth.

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

O'tgan yetti yil mobaynida mamlakatimizda madaniyat va san'atni qo'llab quvvatlash, milliy madaniy va ma'naviy merosni saqlash hamda ko'paytirish, xalqimizni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, moddiy texnik bazani yaxshilash va xalqaro madaniy a'lloqalarni mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi tapaqqiyot bosqichiga kirish jipayoni aloqa vositalarining jadal rivojlanishi, mamlakatlar orasidagi munosabatlarning globallashuvni, madaniyatlar dunyosining yangilanishini kuchaytirdi.

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.¹ Xususan:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o'rnlarda — Konsepsiya) va uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi;

ikkinchidan, madaniyat va san'at tashkilotlarining "do'stlar klublari" faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha mutlaqo yangicha samarali tizim yaratildi;

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4829149>

uchinchidan, muzeylar renovatsiya dasturi qabul qilindi, o‘zbek xalqining ko‘hna va betakror san’ati namunasi bo‘lgan “Xorazm lazgisi” YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi;

to‘rtinchidan, madaniy meros obektlari va san’at ashyolarini restavratsiya qilish bo‘yicha milliy maktab, shuningdek, xalq cholg‘ulari, milliy raqs, maqom yo‘nalishlarida respublika ko‘rik-tanlovleri qayta tiklandi;

beshinchidan, mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivali hamda “Raqs sehri” xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalari va an’analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.²

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sen Farmonining ikkinchi ilovasida: 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 76-maqсадиди: Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo‘yicha rejalashtirilgan ishlar quyidagicha³:

Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish shakli
Madaniyat va san’at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash va ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.	Madaniyat va san’at sohasidagi ma’muriy-boshqaruv, ijodiy-boshqaruv, professor-o‘qituvchilar, ijodiy, mutaxassis, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi hamda boshqa xodimlarining, mehnat haqi miqdorlarini oshirish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi
Teatr san’atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.	1. Mamlakatimizda teatr san’ati sohasining faol ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash. 2. “Teatr san’ati milliy mukofoti”ni ta’sis etish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari
Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o‘tkazishni joriy etish.	1. Guliston shahrida III xalqaro “Baxshichilik san’ati festivali”ni tashkil etish va o‘tkazish. 2. Buxoro shahrida II xalqaro maqom san’at anjumanini o‘tkazish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli farmoni.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 28.01.2022 yildagi PF-60-sen farmoni.

	3. Namanganda bir yilda bir marta an'anaviy tarzda xalqaro "Gullar bayrami festivali"ni tashkil etish va o'tkazish.	
O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.	1. Jizzax shahrida Orifxon Hotamov nomidagi maqom san'ati va mumtoz qo'shiqchilik respublika tanlovini o'tkazish. 2. Qarshi shahrida Qodir baxshi Rahimov tavalludining 85 yilligini munosib nishonlash. 3. Samarqand shahrida O'zbekiston xalq shoiri va baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'li tavalludining 150 yilligini munosib nishonlash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'atni innovatsion rivojlantirish va unga zamonaviy tendensiya (ruscha, moyillik, biror narsaga qiziqish, yangilikka intilish)larni jalb eish, juda katta dolzarblik kasb etayotgan muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, madaniyat va san'at muassasalari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifat darajasini oshirish borasida yangi yondashuvlar ishlab chiqilishini bugungi hayotimiz ham taqozo etmoqda. Barcha sohalarda tobora kuchayib borayotgan umumiyy raqobat sharoitida madaniyat va san'atning o'ziga xos xususiyatlari mutasaddilar oldiga umumiyy boshqaruvning innovatsion usullaridan oqilonqa foydalanish, xodimlarning kasbiy saviyasini oshirish kabi jiddiy vazifalarni qo'yemoqda. Hozirgi vaqtida hammamizga ma'lumki, fan-texnika yutuqlari rivojlanib, tobora yuksak cho'qqilarni zabt etib kelmoqda. Madaniyat va san'atning keng qamrovli, universal, kompleks voqeligi ularni ijtimoiy hayotning barcha yo'naliishlari bilan uyg'un qarashni hamda shu asosda tashkil etishni taqozo qildi. Amмо madaniyat va san'atning g'oyaviy-tarbiyaviy ta'siri ularga alohida ma'naviy fenomen sifatida yondashishga undaydi.⁴

Xususan, davlatimiz tomonidan sohani rivojlantirish bo'yicha 50-dan ortiq qaror, farmon, farmoyish, meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 26-avgustda PQ-3920-ton qarori, 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-tonli qarori, 2020-yil 26-mayda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-tonli farmoni, 2019-yil 9- yanvardag "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni 2021-yil 9-dekabrda "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-36-tonli hamda 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-tonli, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2021-yil 20-yanvar "Madaniy faoliyat va madaniyat

⁴ A.Haydarov. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent, Oltin meros press, 2021. – 470-478 b.

tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-son Qonuni ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan.⁵

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yuqorida keltirib o‘tilgan sohaga doir qarorlar loyihasi, amalda tadbiq etiladigan va ko‘zlangan fikrlar, albatta ertangi kunlarda o‘z natijasini beradi. Sababi madaniyat va san‘at sohasidagi yangicha innovatsiyalar o‘z vaqtida ko‘zda tutilganidek ta’mirlansa, sohada faoliyat yuritayotgan mutasaddi xodimlar o‘z kasbiga doir mas’uliyat va majburiyatlarni chuqur anglagan holda sidqidildan faoliyat yuritsa, davlatimiz tomonidan sohaga qaratilayotgan yuksak e’tbor o‘z samarasini albatta beradi hamda Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida sohaning o‘rni beqiyos bo‘ladi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni.
3. A.Haydarov. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent, Oltin meros press, 2021. – 470-478 b.
4. Nazarbekov O. Har bir soha istiqbolini ijro intizomi belgilaydi// gaz. Yangi O‘zbekiston. 2022-yil 23-iyun, 124-son. 3-b.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-4829149>.

⁵ Nazarbekov O. Har bir soha istiqbolini ijro intizomi belgilaydi// gaz. Yangi O‘zbekiston. 2022-yil 23-iyun, 124-son. 3-b.